2026-yil
9(1)-son

# “FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

# JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

**Bosh muharrir:**
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Mas’ul kotib:**
Muqimov Alisher

**Texnik muharrir:**
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**TAHRIR HAY’ATI:**

**01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
*Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

**02.00.00 – KIMYO FANLARI**
*Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor*
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik*

**03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI**
*Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik*
*Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik*

**04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI**
*Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*
*Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*

**05.00.00 – TEXNIKA FANLARI**
*Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor*
*Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor*

**06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI**
*Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik*
*Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor*

**07.00.00 – TARIX FANLARI**
*Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik*
*Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik*
*Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik*

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**
*Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi*
*To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**
*Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor*
*Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor*

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**
*Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor*
*Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)*

**11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI**
*Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor*
*Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor*

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**
*Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik*
*Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor*

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**
*Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI**
*Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor*
*Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik*

**15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI**
*Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor*
*Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor*

**16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI**
*Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor*

**17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI**
*Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor*
*Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik*

**18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI**
*Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor*
*Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor*

**19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI**
*Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya*
*Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya*
*Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

**22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI**
*Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor*
*Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori*

**23.00.00 – SIYOSIY FANLAR**
*Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori*
*Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori*

**24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI**
*Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor*

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK: 37.013.42:159.954.2

**Aliboyev Turgun Chindaliyevich,**
JDPU "Texnologik ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti

**Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li,**
JDPU "Texnologik ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

# "KREATIVLIK" TUSHUNCHASINING MOHIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "kreativlik" tushunchasining pedagogik va psixologik mohiyati, uning tarixiy shakllanishi va zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Kreativlikning ijodkorlik, kreativ tafakkur va ijodiy tafakkur tushunchalaridan farqli jihatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritilgan. Turli tadqiqotchilarning kreativlikka bergan ta'riflari qiyosiy tahlil qilinib, kreativlik shaxsning nostandart fikrlashi, muammoli vaziyatlarga original yechim topishi, yangi va amaliy qiymatga ega g'oyalarni ilgari surishi bilan bog'liq murakkab qobiliyat sifatida talqin etilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlari, o'qituvchining rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi roli hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada ijodkorlik va kreativlik o'rtasidagi farqlar tizimli ravishda ochib berilib, kreativlikning shaxsning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslangan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, ijodkorlik, kreativ tafakkur, ijodiy tafakkur, original fikr, nostandart yechim, yaratuvchanlik, ijodiy qobiliyat, shaxs, ta'lim, pedagogik jarayon, kreativ shaxs.

# СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «КРЕАТИВНОСТЬ»

**Аннотация.** В статье анализируется педагогическая и психологическая сущность понятия «креативность», особенности его исторического становления и значение в современном образовательном процессе. С теоретико-научной точки зрения раскрываются различия между понятиями креативности, творчества, креативного и творческого мышления. На основе сравнительного анализа научных подходов различных исследователей креативность рассматривается как сложная способность личности, проявляющаяся в нестандартном мышлении, поиске оригинальных решений проблемных ситуаций и выдвижении новых идей, имеющих практическую ценность. Особое внимание уделяется педагогическим условиям развития креативного мышления в образовательном процессе, стимулирующей и поддерживающей роли учителя, а также возможностям формирования креативных качеств

у учащихся. В статье систематизированы различия между творчеством и креативностью и обосновано значение креативности в развитии профессиональной компетентности личности.

**Ключевые слова:** креативность, творчество, креативное мышление, творческое мышление, оригинальное мышление, нестандартное решение, созидательность, творческие способности, личность, образование, педагогический процесс, креативная личность.

## THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF "CREATIVITY"

**Abstract.** This article examines the pedagogical and psychological essence of the concept of "creativity", its historical development and significance in modern education. The differences between creativity, creative activity, creative thinking and divergent thinking are analyzed from a theoretical perspective. Based on a comparative analysis of different scholarly approaches, creativity is interpreted as a complex personal ability manifested in non-standard thinking, finding original solutions to problematic situations, and generating new ideas with practical value. Particular attention is paid to the pedagogical conditions necessary for developing creative thinking in the educational process, the stimulating and supportive role of teachers, and the possibilities of developing students' creative qualities. The article systematically distinguishes creativity from creative activity and substantiates the importance of creativity in the development of an individual's professional competence.

**Keywords:** creativity, creative activity, creative thinking, original thinking, non-standard solution, innovation, creative abilities, personality, education, pedagogical process, creative personality.

**Kirish.** Turli tarixiy davrlar va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda ta'lim tizimi oldiga jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini samarali qondirish imkonini beruvchi yondashuvlarni shakllantirish vazifasi qo'yib kelingan. Ta'lim tizimida qaror topgan har qanday yondashuv o'z mazmuni, yo'nalishi va natijalariga ko'ra mavjud ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondira olgan taqdirdagina samarali pedagogik yondashuv sifatida e'tirof etilgan. Jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi, ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim mazmuni va unga bo'lgan munosabatning muntazam takomillashib borishini taqozo etmoqda. Ayrim pedagogik g'oyalar yangi mazmun bilan boyitilayotgan bo'lsa, ayrimlari zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda yoki ularning o'rnini yangi, progressiv qarashlar egallamoqda.

Shunga qaramay, kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zining dolzarbligini yo'qotmagan pedagogik g'oyalardan biri – mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, ijodkor va o'z faoliyatiga yangilik olib kirishga

qodir shaxsni tarbiyalash masalasidir. Mazkur masala pedagogik fikrlar va ta'lim maktablari taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq ilgari surilgan. Ayniqsa, bugungi globallashuv, raqamlashtirish, axborot oqimining keskin ortishi va kasbiy faoliyatning tez o'zgarib borishi sharoitida shaxsning tayyor bilimlarni o'zlashtirishi bilangina cheklanib qolmasdan, yangi g'oyalarni ishlab chiqishi, muammolarga yangicha yondashishi va nostandart qarorlar qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyat tarixida ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi ko'plab faylasuf, alloma va pedagoglarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, qadimgi Yunoniston ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. A.A.Rean, N.V.Bordovskaya va S.I.Rozumlarning qayd etishicha, Afina shaxsning har tomonlama rivojlanishi, erkinligi va ijodkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya g'oyalarini ilgari surgan. Demak, qadimgi davrdayoq shaxsning erkin fikrlashi, mustaqil faoliyat yuritishi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishi uning rivojlanishining muhim sharti sifatida qaralgan [6].

Kishilik tarixining keyingi davrlarida olib borilgan tadqiqotlarda ham ijodkor shaxsning faoliyatida erkinlik va mustaqillik ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. E.V.Zautorovaning fikricha, ijodkor shaxs o'z "meni"ni anglay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va o'z faoliyatida erkinlikni namoyon eta oladigan shaxsdir [3]. Mazkur qarashlar kreativlik tushunchasining mazmunini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki kreativlik, avvalo, mavjud qoliplarni takrorlash emas, balki ulardan tashqariga chiqib, yangi g'oya va yechimlarni ilgari surishni talab qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirish muammosi, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xorijiy pedagogika va psixologiyada izchil o'rganila boshlandi. XX asrning 60-yillaridan boshlab iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda inson tafakkuri va ijodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Bu davrda kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson aqliy faoliyatining imkoniyatlarini qayta baholashga sabab bo'ldi. Kompyuter texnologiyalari yordamida ilgari uzoq vaqt talab qilgan hisoblash, monitoring va tahlil jarayonlarini qisqa muddatda amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada inson mehnatining oddiy, takrorlanuvchi qismlarini texnika vositalari bajarishi, inson esa yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal etish va innovatsion qarorlar qabul qilishga ko'proq yo'naltirilishi mumkinligi namoyon bo'ldi.

Shu tariqa yangi g'oyalarni yaratish, mavjud muammolarga yangicha yondashish va inson faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan fikrlash jarayonlariga ehtiyoj ortdi. Bugungi kunda "kreativlik" tushunchasi aynan ana shu ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatning deyarli barcha sohalarida rivojlanishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Shu sababli kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

"Kreativlik" atamasi ingliz tilidagi "create" – "yaratmoq", "creative" – "yaratuvchan, ijodiy" so'zlari bilan bog'liq bo'lib, lug'aviy jihatdan yaratuvchanlik va ijodkorlik ma'nolarini anglatadi [11]. Ilmiy nuqtayi nazardan esa kreativlik shaxsning yangi, original va amaliy jihatdan qiymatli g'oyalarni yaratish, mavjud muammolarga nostandart yechimlarni topish hamda faoliyat jarayoniga yangilik kiritish qobiliyatini ifodalaydi.

"Kreativlik" tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi XX asr boshlariga borib taqaladi. 1922-yilda Ray M. Simpsonning "Creative Imagination" ("Kreativ tasavvur") asarida mazkur tushuncha yuqori darajadagi fikriy jarayon sifatida qo'llanilgan [12]. Keyingi davrlarda kreativlik psixologiya, pedagogika, menejment, iqtisodiyot va boshqa ko'plab fanlar doirasida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshlandi.

I.A.Malaxova kreativlikni fikriy jarayon sifatini tavsiflovchi xususiyatlar majmui sifatida izohlaydi. Uning fikricha, kreativlik divergentlik va konvergentlik, tezkorlik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik, keng tasniflash, muammoga sezgirlik, g'oyalarni mavhumlashtirish, sintezlash va qayta guruhlashtirish, keng tasavvur hamda boy xayolot kabi kognitiv xususiyatlar bilan bir qatorda dinamizm, ijodiy izlanishga yo'nalganlik, ijodiy faollik va mustaqillik singari shaxsiy sifatlarni ham qamrab oladi [4].

T.I.Gritsay va P.I.Chernesovlar kreativlikni an'anaviy tafakkur qoliplaridan chetga chiqib, g'ayrioddiy g'oyalarni yaratish hamda muammoli vaziyatlarning tezkor yechimini topishga imkon beruvchi ijodkorlik qobiliyati sifatida talqin qiladilar [2]. Mazkur yondashuvda kreativlikning asosiy belgisi sifatida nostandartlik va muammoli vaziyatlarga tezkor moslashish ajratib ko'rsatiladi.

E.P.Torrensning qarashlarida kreativlik umumiy intellekt, shaxsning individual xususiyatlari va unumli fikrlash imkoniyatlari negizida shakllanuvchi qobiliyat sifatida izohlanadi. Kreativlik mavjud bilimlarga yangi tarkibiy qismlar va aloqalarni qo'shish, yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlash va to'ldirish, yangi yechimlarni izlash, ularni tahlil qilish hamda natijalarni ifodalash jarayonlarida namoyon bo'ladi [9]. Shu jihatdan kreativlikni faqatgina tasavvur yoki fantaziya bilan cheklash mumkin emas. U bilim, tajriba, tahliliy fikrlash va yangi imkoniyatlarni ko'ra olish qobiliyatining o'zaro birikishi natijasida yuzaga keladi.

G.M.Mardanova kreativlikni shaxsning kasbiy kompetentligini, psixologik va jismoniy faolligini, intellektual bilish qobiliyatini, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim sifat sifatida baholaydi [5]. Bu yondashuv kreativlikning faqat individual intellektual jarayon emas, balki shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi kompleks sifat ekanini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kreativlik tushunchasining pedagogik va psixologik mazmunini ochib berishga qaratilgan nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli tadqiqotchilar tomonidan kreativlikka berilgan ta'riflar o'zaro qiyoslanib, tushunchaning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, kreativlik va ijodkorlik tushunchalarining mazmuniy chegaralarini belgilash orqali ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlashga harakat qilindi.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreativlikni shaxsning faqatgina ijodiy mahsulot yaratish qobiliyati sifatida talqin qilish yetarli emas. Kreativlik, avvalo, mavjud muammoni anglash, uning sabablarini tahlil qilish, turli ehtimoliy yechimlarni ishlab chiqish, ularni qiyoslash, eng samarali variantni tanlash va uni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq murakkab kognitiv va shaxsiy jarayondir. Shu ma'noda kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq mazmunni ifodalashi mumkin.

Kreativlikning muhim xususiyati shundan iboratki, kreativ shaxs muayyan tashqi ta'sirni kutib o'tirmaydi. U muammoni o'zi ko'ra oladi, mavjud vaziyatdagi imkoniyatlarni aniqlaydi va yangicha yechimni taklif qiladi. Bunday shaxs faoliyatida tashabbuskorlik, mustaqillik, intellektual faollik, moslashuvchanlik, tavakkal qilishga tayyorlik, muammoga nisbatan sezgirlik va o'z g'oyasini asoslay olish kabi sifatlar o'zaro uyg'unlashadi.

Kreativlik ijodkorlik negizida rivojlanadigan, biroq undan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanuvchi qobiliyatdir. Ijodkorlik ko'proq yangi ijodiy mahsulotni yaratishga, xususan, badiiy-estetik qiymatga ega asar yoki mahsulotni vujudga keltirishga yo'naltirilsa, kreativlik mavjud muammoga nisbatan yangi, original va amaliy jihatdan samarali yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Shu sababli ijodiy mahsulotning asosiy mezoni uning badiiy-estetik qiymati bo'lishi mumkin bo'lsa, kreativ mahsulot uchun yangilik bilan bir qatorda uning amaliy qiymati ham muhim hisoblanadi.

Ijodkorlik jarayonida hissiy ta'sirlanish, g'oyaning yuzaga kelishi, uni asoslash va ijod mahsulotini yaratish ustuvor bo'lsa, kreativ faoliyatda muammoni anglash, zarur ma'lumotlarni tahlil qilish, bir nechta g'oyalarni ilgari surish, ularni baholash va eng samarali yechimni tanlash jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur ikki hodisani mutlaqo bir-biridan ajratib qo'yish ham to'g'ri emas. Chunki kreativlik va ijodkorlik bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar bo'lib, ularning har ikkalasida yangilik yaratish, mavjud chegaralardan tashqariga chiqish va shaxsning intellektual salohiyatini namoyon qilish xususiyati mavjud.

Kreativ tafakkur esa aynan kreativlikni amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. U tafakkurning an'anaviy shakllaridan yangi va samarali qarorlarni izlash, turli g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va

takomillashtirishga yo‘nalganligi bilan farq qiladi. Kreativ tafakkur rivojlangan shaxs birgina yechim bilan chegaralanib qolmaydi, balki muammoning bir nechta ehtimoliy yechimlarini ishlab chiqadi. Keyinchalik mazkur yechimlar ichidan eng maqbulini tanlaydi. Shu jihatdan kreativ tafakkur divergent va konvergent fikrlash jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi.

Kreativ tafakkur o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Uning rivojlanishi uchun shaxsga muayyan pedagogik va psixologik sharoitlar yaratilishi lozim. Ta’lim jarayonida o‘quvchining savol berishi, o‘z fikrini erkin ifodalashi, xato qilishdan qo‘rqmasligi, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishi va mustaqil qaror qabul qilishi rag‘batlantirilishi zarur. O‘qituvchi tomonidan faqat bitta “to‘g‘ri javob”ni talab qilish o‘rniga turli yechimlarni qabul qilish, o‘quvchini o‘z fikrini asoslashga undash va original g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash kreativ tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ijobiy psixologik muhit ham kreativlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. O‘quvchining kichik yutuqlarini e’tirof etish, uning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Ijobiy kayfiyat va psixologik xotirjamlik esa shaxsning fikrlash faolligini oshirib, yangi g‘oyalarni ilgari surishiga qulay sharoit yaratadi [8].

Ye.L.Soldatovaning tadqiqotlarida o‘smirlik davri kreativlikning rivojlanishi uchun ayniqsa ta’sirchan davr sifatida baholanadi [7]. Ushbu davrda shaxslararo hamkorlik, o‘zaro tenglik, rolli vazifalarni bajarish, o‘ziga bo‘lgan ishonch va muloqot jarayonlari kreativlikning namoyon bo‘lishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual faoliyati bilan bir qatorda guruhiy va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish ham kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativ shaxs faoliyatida yangi g‘oyalarni muntazam ravishda ilgari surish, muammo va masalalarning oqilona yechimini topish, mavjud mahsulot yoki jarayonni o‘zgacha ko‘rinishda talqin qilish, uni original elementlar bilan boyitish orqali amaliy qiymatga ega natijaga erishish imkoniyati mavjud. Shu sababli zamonaviy ta’limda kreativlikni rivojlantirish faqat san’at yoki ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun emas, balki barcha soha mutaxassislari uchun zarur kompetensiya sifatida qaralishi lozim.

Bugungi kunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning tezkor yangilanishi va mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo‘lishi mutaxassisdan nafaqat mavjud bilimlarni egallashni, balki o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishni, yangi vazifalarni mustaqil hal qilishni va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan kreativlik shaxsning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Umuman olganda, kreativlik zamonaviy shaxsning muhim intellektual va shaxsiy sifatlaridan biri bo‘lib, u mavjud qolip va

andozalardan tashqariga chiqish, yangi va original g‘oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarda nostandart hamda samarali yechimlarni topish qobiliyatini ifodalaydi. Kreativlikning shakllanishi shaxsning intellektual salohiyati, tasavvuri, mustaqilligi, motivatsiyasi, kommunikativ imkoniyatlari va amaliy tajribasi bilan uzviy bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik va kreativlik mazmunan yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ularni aynan bir hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Ijodkorlik ko‘proq ijodiy mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, kreativlik yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarni yangicha ko‘rish va amaliy qiymatga ega yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini anglatadi. Kreativ tafakkur esa mazkur jarayonning asosiy intellektual mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik muhitni yaratish muhimdir. Bunday muhitda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, savol berishi, turli g‘oyalarni ilgari surishi, xatolardan ta’limiy tajriba sifatida foydalanishi va muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashishi qo‘llab-quvvatlanishi kerak. O‘qituvchining vazifasi esa faqat tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanmasdan, o‘quvchini fikrlashga, izlanishga, yangilik yaratishga va o‘z g‘oyalarini amaliyotda sinab ko‘rishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Demak, kreativlik shaxsning ijodkorlik salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadigan, intellektual mustaqillik va amaliy yaratuvchanlikni ta’minlaydigan murakkab qobiliyatdir. Kuchli raqobat, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va texnologik yangilanishlar sharoitida kreativlik har bir shaxs, ayniqsa, bo‘lajak mutaxassis uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Грицай Т.И. Реализация системы развития креативности старшеклассников в процессе изучения гуманитарных дисциплин // Педагогический журнал. – М., 2017. – Т. 7. – № 1А. – С. 137–146.

2. Грицай Т.И., Чернецов П.И. Исследование креативности старшеклассников // Научная электронная библиотека «КиберЛенинка».

3. Зауторова Э.В. Развитие творческих способностей курсантов в процессе обучения // Научная электронная библиотека «КиберЛенинка».

4. Малахова И.А. Развитие креативности школьников в процессе любительской художественной деятельности: дис. ... д-ра пед. наук. – Минск, 2011. – С. 43.

5. Марданова Г.М. Технология развития креативного потенциала учащихся общеобразовательной школы: дис. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 2005. – С. 37.

6. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2010. – С. 249.

7. Солдатова Э.Л. Креативность в структуре личности: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 1996. – С. 18–19.

8. 8 способов развить креативное мышление // РБК Style.

9. Тест креативности Торранса // Материалы по психологии и педагогике.

10. Что такое креативное мышление // BrainApps.

11. Что такое креативность // Характер.net.

12. Simpson R.M. Creative Imagination // Journal of Educational Psychology. – 1922.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

**Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ**
**Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
**E-mail:** saen_2024@mail.ru
**Jurnal sayti:** www.saen.uz
**Telegram kanali:** **https://t.me/saen_2024**

**Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.**

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**ISSN:** 3093-8694